

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “VARAQ” SHE’RI TAHLILI

Nurmaxmatova Firusa Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg(1939-2009)- o‘zbek adabiyotini o‘zining chuqur falsafiy mazmunga va lirizmga boy asarlari bilan boyitgan atoqli ijodkorlardan biri sanaladi.Ijodkor o‘zining faoliyati davomida turli xil mavzularni ham nasrda ham nazmda qalamga oldi.U Vatan,urush va tinchlik,tabiatdan tortib qalb, ijod kuchi,so‘zga ehtirom kabi mavzulardagi ta’sirli asarlarni o‘quvchilarga taqdim etdi. Shoir ijodiyotida so‘zga tirik mavjudot sifatida qaraydi.Har bir satr yurak urishi bilan teng,har bir satr shoir ruhining bir parchasi kabi namoyon bo‘ladi.Faynberg uchun she’r yozish shunchaki u shug‘ullanadigan badiiy mashg‘ulot emas,ma’naviy mas’uliyat,qalb e’tirofi va vaqt bilan muloqot sanaladi.U o‘z asarlarida inson ichki dunyosini chuqur yoritib beradi,tabiat manzaralari ,ramziy obrazlar orqali teranlashtiriladi.Faynberg she’riyatiga xos bo‘lgan yana bir noyob jihatlardan biri bu poklik va samimiyat hisoblanadi.U o‘quvchini majburlab emas,o‘ziga xos she’iy ohang va sokin,muloyim fikrlar bilan o‘ziga jalb qiladi.Faynberg she’riyatida kundalik hayotning arziyas detallari ham chuqur ma’no-mazmun kasb etadi.“Varaq” she’ri ham shoir qalamiga mansub,so‘z va san’atga ijodkor ehtiromini ko‘rsatib bera olgan ajoyib she’rdir.Ushbu maqola “Varaq” she’ri tahliliga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy tafakkur, she’r falsafasi, so‘z qadri, ijod mas’uliyati, ma’naviy mas’uliyat, ijod, ruh, tirikmavjudot, lirikqahramon, jon,yurak, metaforalar, taqqoslashlar,

yurak va satr birligi, poetic ifoda, ruhiy kechinma, varaq obrazi, so'z va xotira, she'ring hayotiligi, ma'naviy poklik.

Abstract: Alexander Arkadevich Feinberg (1939-2009) is considered one of the outstanding creators who enriched Uzbek literature with his works rich in deep philosophical content and lyricism. Throughout his career, the creator wrote about various topics in both prose and verse. He presented to readers impressive works on topics such as the Motherland, war and peace, nature, the soul, the power of creativity, and respect for words. In his work, the poet treats words as a living being. Each line is equal to a heartbeat, each line appears as a piece of the poet's soul. For Feinberg, writing poetry is not just an artistic activity that he engages in, but a spiritual responsibility, a confession of the soul, and a dialogue with time. In his works, he deeply illuminates the inner world of man, deepening it through natural landscapes and symbolic images. Another unique aspect of Feinberg's poetry is purity and sincerity. He does not force the reader, but attracts him with his own poetic tone and calm, gentle thoughts. In Feinberg's poetry, even the insignificant details of everyday life acquire deep meaning and content. The poem "Sheet" is also a wonderful poem belonging to the poet's pen, which shows the creative respect for words and art. This article is about the poem "Sheet" is devoted to the analysis.

Keywords: artistic thought, philosophy of poetry, the value of words, creative responsibility, spiritual responsibility, creativity, spirit, living being, lyrical hero, soul, heart, metaphors, comparisons, unity of heart and line, poetic expression, spiritual experience, image of a sheet, words and memory, vitality of poetry, spiritual purity.

Аннотация: Александр Аркаевич Файнберг (1939-2009) считается одним из выдающихся писателей, обогативших узбекскую литературу своими произведениями, отличающимися глубоким философским содержанием и лиризмом. На протяжении своей карьеры он писал на самые разные темы как в прозе, так и в стихах. Он представил читателям впечатляющие произведения на такие темы, как Родина, война и мир, природа, душа, сила творчества и уважение к слову. В своем творчестве поэт относится к слову как к живому существу. Каждая

строка равна биению сердца, каждая строка предстает как частичка души поэта. Для Файнберга написание стихов — это не просто художественная деятельность, а духовная ответственность, исповедь души и диалог со временем. В своих произведениях он глубоко освещает внутренний мир человека, углубляя его через природные пейзажи и символические образы. Еще одна уникальная черта поэзии Файнберга — чистота и искренность. Он не навязывает читателю свою точку зрения, а привлекает его своим поэтическим тоном и спокойными, нежными мыслями. В поэзии Файнберга даже незначительные детали повседневной жизни приобретают глубокий смысл и содержание. Стихотворение «Простыня» — также замечательное произведение, принадлежащее перу поэта, демонстрирующее творческое уважение к слову и искусству. Данная статья посвящена анализу стихотворения «Простыня».

Ключевые слова: художественная мысль, философия поэзии, ценность слов, творческая ответственность, духовная ответственность, творчество, дух, живое существо, лирический герой, душа, сердце, метафоры, сравнения, единство сердца и строки, поэтическое выражение, духовный опыт, образ простыни, слова и память, жизненная сила поэзии, духовная чистота.

Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodi bilan qiziqqan har bir kitobxon ijodkorning qanchalik mahoratli shoir,yozuvchi,dramaturg,tarjimon ekanligini,har bir satrga qalb qo'rini berib,eng samimiy tuyg'ular,teran falsafiy mulohazalar bilan yozishini biladi.Shoir muxlislari va uning ijodidan bir bora o'qiganlarga ham ijodkor uchun adabiyot eng bebaho boylik ekanligini,u shunchaki so'zlarni qog'ozga tushurmasligini,yozgan har satrini ko'z qorachig'iday asrab-avaylashga harakat qilishini payqaydi."Varaq" she'ri ham aslida shoir qalbidagi ijodga,so'zga bo'lgan ehtiromni,ularning qudratini tushuntiradi va muallifning asarlari kelajak avlod tomonidan ham hurmat qilinishiga bo'lgan umidini kamtarlik bilan bayon etadi.

Yulduzlarni asraydi falak,

Teran dengiz asrar durlarni.

Daftarimdan yirtilgan varaq,

Asragin men yozgan she'rlarni.

She'rda ijodkor daftaridan yulingan bir varaq timsolida butun ruh, ijod va so'z abadiyligi tushunchalarini ifodalab beradi. Lirik qahramon varaqni shamol, dengiz, falak bilan qiyoslar ekan, u varaqni tirik mavjudot sifatida tasvirlaydi va bu orqali adabiyot va tabiat o'rtasidagi hamohanglikka ishora qiladi.

Faynberg uchun she'r bu- "yurakdan yangragan tovush", "jon", "nafas oluvchi mavjudot". Demak u mana shu she'rda yozgan har bir satri hayotidan olinganligi, yuragining bir parchasi ekanligini kitobxonga tushuntiradi.

She'r -nafaqat o'qimoq, uqmoq,

She'r yurakda yangragan tovush:

Qutraganday taygada so'qmoq,

Tebrangandek ko'llarda qamish.

Har satrim-jon, har she'rim yurak,

O'rmon, qushlar, bulutlarga xesh.

She'r lirik qahramoni o'z ijodiga so'nmas mehr bilan qaraydi, uni asragisi, kelajak avlodga sof yetkazgisi keladi:

"Avlodlarga kelmasin malol,

She'rlarim g'am chekmasin nochor..."

Ushbu satrlardan shoirga xos bo'lgan ma'naviy mas'uliyatni anglaymiz. U nafaqat yozadi, balki yozayotgan asarlarini kelajak avlod oldidagi burch sifatida ko'radi.

She'rda ko'plab metaforalar va taqqoslashlar mavjud.

"Yulduzlarni asraydi falak"- ijod himoyasining ramzi.

“Daftari­ndan yirtilgan varaq”- yo’qo­lish, vaqt, biroq abadiyat ifodasi.

“Har satrim-jon, har she’rim-yurak”- ijodning ruhiy ildizini ifodalaydi.

Shoir uchun she’r shunchaki so’zlar emas, ruhiy alodadir. U she’rni tirik mavjudot, varaqni esa bu dunyodagi ruhiy iz sifatida tasvirlaydi. She’rning falsafiy mazmuni shundan iboratki, so’zlar hech qachon o’lmaydi, ular vaqt o’tishi bilan yangi ma’no kasb etadi.

VARAQ

Yulduzlarni asraydi falak,

Teran dengiz asrar durlarni.

Daftari­ndan yirtilgan varaq,

Asragin men yozgan she’rlarni.

She’r – nafaqat o’qimoq, uqmoq,

She’r – yurakda yangragan tovush:

Qutqargandek Taygada so’qmoq,

Tebrangandek ko’llarda qamish.

Har satrim – jon, har she’rim – yurak,

O’rmon, qushlar, bulutlarga xesh.

Daftari­ndan yirtilgan varaq,

She’rlarimni asra peshma-pesh.

Avlodlarga kelmasin malol,

She’rlarim g’am chekmasin nochor,

Shamol, dengiz va yaproq misol

Nafas olsin, kulsin beg‘ubor

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ”Varaq” she‘ri oddiy she‘r emas, Faynberg qalbidagi ijodga, so‘zga bo‘lgan hurmat, ularni asrashga bo‘lgan harakati bayoni. Ijodkor o‘z she‘rida qalbidagi hislarni chuqur falsafaviy o‘y-qarashlar, pur ma‘no so‘zlar yordamida mohirlik bilan o‘quvchiga yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Faynberg A.A Tanlangan asarlar.- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San‘at nashriyoti, 1988.
2. Karimov N. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti poetikasi.- Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012.
3. Jo‘raeva G. O‘zbek lirikasi tahlili asoslari. – Toshkent: Universiteti, 2018.
4. Ruzikulova M. She‘riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg‘unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
6. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
7. www.ziyouz.com — “Aleksandr Faynberg she‘riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to‘plami
8. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.